

ISSN: 2545-0573

TURIZM SOHASIDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxatova N. I.

*Qarshi DU, doktorant***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:**Turizm, turizm industriyzi,
outsorsing, autstaffing.**Annotatsiya**

Maqolada turizm sohasi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Kirish. So'nggi yillarda jahon turizm bozori barqaror o'sish sur'atini namoyish etib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ishchi o'rinlar bilan ta'minlashning asosiy sektoriga aylanmoqda. Turizm sohasi ulushiga jahon savdo xizmatlarining 30%, investitsiyalarining 7% ga yaqini va jahon YAIM 10,5% to'g'ri keladi. Shu o'rinda, har beshinchi yangi ish o'rni turizm sohasiga to'g'ri kelmoqda. Jahonning 38% mamlakatida turizm davlat byudjetining asosiy manbai, 83% da esa beshta asosiy manbaning biri hisoblanadi.

Turizm sohasini rivojlantirishning maqsadlari sifatida turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirishda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish, turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash dolzarb masalalar hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologiyasi va natijalari. O'zbekiston boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni faol jalb qilish turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qildi.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal

rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, turizm bosqichma-bosqich mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'iga aylanayotganligini hisobga olgan holda mintaqalarning salohiyatini turizm sohasiga to'liq jalb etishni, xizmatlar sohasini rivojlantirishni, Buyuk ipak yo'lida turizm yo'nalishining jozibador markazi sifatida respublikaning ijobiy qiyofasini shakllantirishni ta'minlaydigan, yuqori malakali va jahon turizm industriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga obyektiv zarurat yuzaga kelmoqda.

Malakali kadrlar etishmasligi muammosi har qanday soha uchun doimo dolzarb bo'lib, jadal rivojlanayotgan turizm va mehmondo'stlik sohasi uchun asosiy muammo hisoblanadi, ya'ni

- Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bitiruvchilari xalqaro standartlarga mos keladigan kasbiy talablarga javob bermaydi.
- Bugungi mutaxassislarning professional darajasi past, shuning uchun o'z o'quv dasturlariga ega mehmonxonalar va sayyohlik agentliklari yollangan xodimlarni qayta tayyorlashga majbur.
- Yosh mutaxassislar rivojlanayotgan raqobat muhitida ega bo'lishi kerak bo'lgan qobiliyat va moslashuvchan ko'nikmalarning etishmasligi

Turizm sohasi, ayniqsa mehmonxonalar tizimi uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, xizmatlar korsatish sifatini oshirishga yordam beradigan kasbiy tayyorgarlik tizimini barqaror rivojlantirishdan iborat. mehmondo'stlik va turizm sohasida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-iyundagi "Ipak Yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3815-sonli Qaroriga muvofiq xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy ishlarni olib borish bo'yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro'yobga chiqarish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish, zamonaviy innovatsion va ilmiy-pedagogik texnologiyalarni, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini qo'llagan holda, turizm sohasida yuqori malakali professional kadrlarni milliy va xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq sifatli tayyorlashni ta'minlashni amalga oshiradigan "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti tashkil etildi hamda universitetning asosiy yo'nalishlari belgilandi [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-sonli Qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozoringa zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini yo'lga qo'yish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash maqsadida qabul qilingan ushbu qaror bilan "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qayta nomlanishi, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning turizm, madaniy merosni boshqarish va muzeyshunoslik sohalarida kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi hamda ushbu sohalarni ilmiy va innovatsion tadqiq etish bo'yicha ilmiy muassasaga aylantirish, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Shahrisabz, Marg'ilon va Xiva turizm va servis kollejlari negizida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan Shahrisabz, Marg'ilon va Xiva turizm va madaniy meros texnikumlarini tashkil etish, Samarqand turizm va servis texnikumini Samarqand turizm va madaniy meros texnikumi hamda Buxoro turizm texnikumini Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi deb qayta

nomlash, Turizmni rivojlantirish instituti, Madaniy meros texnikumlari, Andijon, Zomin va Bo'stonliq turizm va servis kollejlari hamda Toshkent turizm va biznes kollejini Turizm va sport vazirligi tuzilmasidan Universitet tuzilmasiga o'tkazish, Toshkent turizm va servis kolleji negizida Universitetning Toshkent filialini tashkil etish, universitetni Madaniy meros agentligi huzuridagi Samarqand arxeologiya institutining ilmiy va innovatsion tadqiqotlar sohasidagi hamda metodik yo'nalishlardagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ etib belgilash to'g'risida vazifalar belgilandi. Farmon bilan "Ipak yo'li" davlatlari tarixi, san'ati va sivilizatsiyalarini tadqiq va namoyish etish uchun universitet huzurida "Ipak yo'li" xalqaro tadqiqot instituti, "Ipak yo'li" muzeyi, "Ipak yo'li" art-rezidensiyasi, "Ipak yo'li" san'at galereyasi, Restavratorlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish markazini tashkil etish tasdiqlandi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni bilan 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlandi [3].

Konsepsiyada iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Konsepsiyada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar nazarda tutildi:

- ✓ turizm sohasida kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi kadrlari va bitiruvchilarining malakasini baholashni tashkil qilish;
- ✓ turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko'p bosqichli ta'lim tizimini yaratish;
- ✓ ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan va modernizatsiyalashgan ta'lim standartlari, o'quv-uslubiy dasturlar hamda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ✓ ichki va kirish turizmi sohasida bevosita turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi turizm sohasi xodimlari (gidlar, yo'riqchi-kuzatuvchi, turizm faoliyati subyektlari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqalar xodimlari) uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish;
- ✓ turizm sohasi xodimlarini turistlarga axborot berish ishlari va xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalarni o'tkazish qoidalarga o'qitish bo'yicha tizimni ishlab chiqish va joriy qilish;
- ✓ ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish uchun, shu jumladan hududlarda ta'lim muassasalari sonini oshirish;
- ✓ turizm sohasida kadrlar tayyorlash uchun yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarini ochish.

Tahlil. Turizm ta'limining o'ziga xosligi uning ko'p qirraliligidadir. U turli mutaxassisliklar va iqtisodiy, texnik, texnologik, boshqaruv, ilmiy va boshqa sohalardagi kadrlarni tayyorlaydi. Binobarin, turistik ta'lim kompleks, doimiy takomillashib boruvchi mexanizm bo'lib, turizm kadrlarini tayyorlash bo'yicha innovatsion dasturlarni faol amalga oshirish va xorijiy tajribadan foydalanish imkonini beradi.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari sayyohlik sohasini bitiruvchi mutaxassislar sonining ko'payishi

munosabati bilan sohada zamonaviy kasbiy bilim va amaliy tajribaga ega bo'lgan malakali professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Biroq, yuqoridagi tadqiqotda qayd etilganidek, "ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlari yetishmasligi, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan". Shuningdek, turizm sohasining eng malakali xodimlari mahorat darslari o'tkazish, ma'ruzalar o'qish va seminarlar o'tkazish, turizm korxonalarida turli ko'rinishdagi amaliyotlarni boshqarishda sust jalb etilganligini ham ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yetarlicha uslubiy ta'minlash, kasb-hunar ta'limining innovatsion texnologiyalarini rivojlantirish, masofaviy ta'lim metod va vositalarini joriy etishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Kasbiy turizm ta'limi tizimini zamonaviy darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ko'plab fanlar bo'yicha o'quv dasturlari bilan ta'minlashda muvofiqlashtirish yo'lga qo'yilmagan. Kasbiy turizm ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari, qoida tariqasida, talabalarga zarur zamonaviy amaliy kasbiy bilim va ko'nikmalarni bermaydi, ular rasmiy xarakterga ega.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlar tayyorlashga buyurtmalar shakllantirish jarayonlarida, bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqishda, soha uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlashda ishtiroki zamon talablariga javob bermaydi. Ish beruvchilar tomonidan oliy ta'lim dasturlari o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob berish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmayapti. Oliy ta'lim-fan-ishlab chiqarishni o'zaro bog'lash tizimida kamchiliklar mavjud, ularning integratsiyasi ta'minlanmagan. Malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda.

Turizmni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi darajasiga turizm sohasida kadrlar siyosati va professional turizm ta'limi tegishli qonunchilik bilan ta'minlanmasdan, ta'lim muassasalarining davlat hokimiyati organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, ilmiy tashkilotlar, turizm sohasi vakillari (ish beruvchilar) bilan yaqin o'zaro hamkorligisiz erishib bo'lmaydi. , hududiy davlat tuzilmalari.

Kadrlar tayyorlash jarayonida shaxs va uning malakasini shakllantirish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, ularning kasbiy faoliyatga moslashish jarayonini osonlashtirish imkonini beradi.

Autsorsing va autstaffingni turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashga zamonaviy yondashuv bilan bog'lash mumkin. Autsorsing - bu asosiy bo'lmagan funksiyalarni uchinchi tomon tashkilotiga xizmat ko'rsatish uchun o'tkazish. Masalan, xodimlarni baholash va tanlashni ishga qabul qilish agentliklariga topshirish. Autstaffing - bu vaqtinchalik va mavsumiy loyihalar uchun xodimlarni yollash jarayonining moslashuvchanligini oshirish zarur bo'lganda, qisqa va uzoq muddatli loyihalar uchun talab qilinadigan ma'lum kasbiy ko'nikmalar, bilim va tajribalarni optimallashtirishga yordam beradigan usul.

Bugungi kunda autsorsing va autstaffing xizmatlari odatiy holga aylanib bormoqda. Turizm va mehmondo'stlik sohasidagi ko'plab tashkilot va korxonalar egalari xodimlarni ishga olmaydilar, balki provayder kompaniyaning mutaxassislarni ishga taklif qilishadi: ular xizmatkorlar, ofitsiantlar, uy bekalari, oshpazlar xizmatlaridan foydalanadilar, ularni xodimlar sifatida ro'yxatdan o'tkazmaslikni afzal ko'rishadi.

Zamonaviy sharoitda turizmning rivojlanishi ham mutaxassislar tayyorlashda yanada samarali yondashuvlarni qo'llash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi vaqtda bu malakaga asoslangan yondashuv. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning vazifasi ta'limni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishdan iborat. Ushbu yondashuvning zamonaviyligi o'z taqdirini o'zi belgilash madaniyatida yotadi, ya'ni. o'z-o'zini amalga oshirish, o'zini o'zi belgilash va o'zini rivojlantirish qobiliyati va tayyorligi hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassis mehnat bozoridagi o'zgaruvchan vaziyatga va yangi talablarga tezda moslashishga

yordam beradigan ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak. Malakali mutaxassisning malakalidan farqi shundaki, malakali mutaxassis nafaqat aniq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, balki ularni o'z ishida qo'llay oladi.

Xulosa. Turizm ta'limining o'ziga xosligi uning ko'p qirraliligidadir, u doimiy modernizatsiya qilinadigan murakkab jarayon bo'lib, turizm kadrlarini tayyorlash uchun innovatsion dasturlarni joriy etish va ilg'or xorijiy tajribadan faolroq foydalanish imkonini beradi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlashni kengaytirish va bu boradagi dasturlarni ishlab chiqish, ta'lim muassasalari va kurslar negizida turizm sohasi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish turizm industriyasi uchun XXI asr talablariga javob beradigan yuqori darajadagi kadrlar tayyorlashga erishishga qaratilgan, professional kadrlar tayyorlovi borasida integratsiyalashgan tizimni yaratish, ta'lim va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yuqori malakali menejer, administrator, operator va portye oshpazlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-iyundagi "“Ipak Yo'li” turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3815-sonli qarori //https://lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohaslarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5270-sonli Qarori //https://lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-5611-sonli Farmoni //https://lex.uz
4. Djuraevna, R. M. (2021). Development Prospects for Digital Economy Development in Uzbekistan. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 58-64.
5. Sukhrob Sh. Makhmudov, & Muborak Raimova (2017). Comparative analysis of the Germany and Uzbekistan corporate governance codes. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, (5-6), 60-65. doi: 10.20534/AJH-17-5.6-60-65
6. Raimova, M. D., & ogli Makhatov, S. I. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PRIORITIES IN UZBEKISTAN. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 160-168.
7. Махаматов, S., & Raimova, M. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МИЛЛИЙ ИННОВАЦИОН ТИЗИМНИ ЯРАТИШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
8. Yakubova, Sh. Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition / Sh. Sh. Yakubova, M. D. Raimova // *Theoretical & Applied Science*. – 2021. – No 12(104). – P. 349-352. – DOI 10.15863/TAS.2021.12.104.14. – EDN SXZRTT.